

Xorazm Mintaqaviy Antroponimiyasida Ayol Ismlarining O'ziga Xos Xususiyatlari

*Qabulova Dilnoza Rustamovna*¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada dialektal antroponimlar mintaqaviy antroponimikaning asosiy xususiyati sifatida sanalib, uning asosiy jihatlari Xorazm shevalaridagi ayol ismlari misolida ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Antroponimlar, dialektal antroponimika, mintaqaviy antroponimika, ayol ismlari, Xorazm shevalari.

Xorazm ayol ismlari tilimiz boyligining tarkibiy qismi hisoblanadi. O'zbek tili turli tarixiy davrlarda yuzaga kelgan xilma-xil ismlarga boy bo'lib, bu nomlar o'zbek xalqining uzoq madaniy va ma'naviy qadriyatining ajoyib durdonalaridir. Chunki bu nomlarda xalqimizning tarixiy yo'li, xalqning orzu - umidlari, armonlari, falsafiy, diniy, ma'naviy-axloqiy, tarbiyaviy-estetik qarashlari, e'tiqodlari, hurmat-ehtiromi o'z ifodasini topgan. Shu nuqtayi nazardan olib qaraydigan bo'lsak, ismlar ham tarixdan guvohlik berib turadi.

E.Begmatov va G'.Sattorovlar ham mintaqaviy antroponimikaning o'ziga xos xususiyatlarini sanar ekanlar, dialektal antroponimiya masalasi eng asosiy jihat ekanligini ta'kidlashgan. Ularning qayd qilishlaricha, o'zbek mintaqaviy antroponimiyasi: 1) o'ziga xos dialektal nomlarga egaligi; 2) ismlarning lahjaviy talaffuzga egaligi; 3) ismlar yasalishidagi lahjaviy xususiyatlar; 4) ba'zi antroponimik ismlarning sermahsul va serqo'llanuvchanligi; 5) ba'zi turkum ismlarining bu mintaqada ko'p uchirishi; 6) qo'shma ismlarga xos bo'lgan ba'zi bir juz'iy yasalish modellariga egaligi; 7) ismlar qisqarishidagi ba'zi o'ziga xosliklar bilan xarakterlanadi.² Shu asosda o'zbek mintaqaviy antroponimikasi tadqiqotning dialektal o'ziga xosligi o'zbek tilshunosligining eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Shuningdek, shevalardagi ismlarda muhim xususiyat, ularda adabiy tildagi ismlarning lahjaviy variantlari mavjud ekanligidir. Ushbu shakldagi variantlarda ism o'zi mansub shevaga xos shaklga ega bo'ladi va ular nomning adabiy tilga moslashgan shakli bilan variantlilikni tashkil qiladi.³ Ismlarning variantdorligi masalasida R.Y.Xudayberganov⁴ning ishlari diqqatga sozovordir. U o'z tadqiqotida ismlarning lahjaviy variantlarini qipchoq shevalarida uchraydigan nomlar, o'g'uz shevalarida uchraydigan nomlar tarzida tahlilga tortgan.

Ma'lumki, ismlarning lahjaviy variantlari o'z-o'zidan turli fonetik o'zgarishlar orqali yuz beradi. Xorazm shevalarida adabiy tilda mavjud ismlarning lahjaviy variantlari o'ziga xoslikni tashkil qiladi. Sinkopa hodisasiga ko'ra adabiy tildagi ayrim ismlar tarkibidagi "h" tovushi sheva vakillari talaffuzida tushib qoladi: *Gövär* [Gavhar], *ša:sänäm* [Shohsanam], *Zö:rä* [Zuhra], *ša:yïsta* [Shohista], *Meyrïvan* [Mehribon] kabi. Bu holat ismlarning lahjaviy variantlarini shakllanishiga xizmat qilmoqda. Yuqoridagi qayd etilgan ismlarning aksariyati arabcha antroponimlar bo'lib, so'z o'rtasidagi "h"

¹ UrDU tayanch doktoranti

² Бегматов Э.А., Саттаров Г. Дialeктные элементы узбекской национальной антропонимии // Ономастика Узбекистана. –Ташкент, 1989. –С. 113-114.

³ Бегматов Э.А., Саттаров Г. Дialeктные элементы узбекской национальной антропонимии // Ономастика Узбекистана. –Ташкент, 1989. –С. 113-114.

⁴ Худойбергенов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. –Ташкент, 2008. – Б.10.



bo'g'iz tovushi arab alifbosidagi "hoi xutti" yoki "hoie havvaz" harflaridan iborat bo'lib, talaffuz jarayonida u tushib qoladi yoki "y" undoshiga almashiladi.

Xorazm o'g'uz lahjasida "t" va "d" undoshlarining, "k" va "g" undoshlarining almashinish hodisasi ko'p kuzatiladi: Durdig'ul, Durdipa'sha [Tur diposhsha, Turdigul] kabi. Lekin "k" va "g" undoshlarining almashinish hodisasi erkak ismlarida ko'pchilikni tashkil qilib, ayol ismlarida bu hodisa uchramasligini guvohi bo'ldik.

Shuningdek, Xorazm qipchoq shevalarida ayol kishi ismlariga "jon" affiksoidi qo'shilganda, geminatsiya hodisasi yuz beradi: Yaqi'c'can [Yoqutjon], Heyi'c'can [Hayitjon], Avajjan [Avazjon], Niyajjan [Nizoyjon] kabi.

Xorazm mintaqaviy antroponimiyasida ayol ismlarining dialektologik xususiyatlaridan yana biri ismlarning qisqargan shaklda ishlatilishidir. Bu jihat o'zi umuman, antroponim sistemasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri hisoblanadi. Ismlarning og'zaki nutq jarayonida o'ziga xos talaffuz qilinishi tufayli turli shakllarga o'zgarishidir. Bunday o'zgarish ko'p hollarda nomlarning shaklan qisqartirilishi, toraytirilishi orqali ro'y beradi. Ismlarni qisqartirib ishlatishning asosiy jihati ota-onalar, qarindoshlarning yoki yosh bolalarning chaqaloq, bolalarni erkalash-suyish jarayonida uning ismini turli shakllarda qisqartirib talaffuz qilishlari talablari bilan izohlash mumkin. Bunday o'zgarish nolingvistik omil bo'lsa-da, ismlarning torayishi, baribir milliy til fonetik sistemasi imkoniyatlari qonuniyatlari doirasida yuz beradi⁵.

E.Y.O'rozov janubiy Xorazmdagi o'zbek shevalarida ismlarning quyidagi qisqargan variantlari mavjudligini qayd qilib, *Nurri* (Nurposhsha), *Dokki* (Durdixonim) ismlarini keltirgan bo'lsa, keyinchalik mana shu hodisa Ahmad Ishayevning Mang'it shevasida shaklan toraygan quyidagi ismlarni keltiradi: *Adal*, *Adi'sh* (Adolat), *Zummi* (Zumrat), *Durpa'sh* (Durdiposhsha), *Sanni* (Sanobar) kabi ismlarni ko'rsatib o'tadilar.

Ismlarda qisqarish hodisasi so'zlashuv nutqi talaffuzi bo'lsa-da, u aslida ma'lum fonetik qonuniyatlarda asosida yuz beradi. Xorazm mintaqaviy toponimiyasida ayol ismlarining qisqarishi quyidagi qonuniyatlarga amal qiladi:

1. Ayol ismlari tarkibidagi birinchi komponentdan ayrim tovush yoki tovushlar birikmasi tushirib talaffuz qilinadi: *Biyjan*, *Buyjan* [Bibijon], *Biyrajab* [Bibirajab], *Bisara* [Bibisora] kabi.
2. Ayol ismlarining birinchi komponenti butunlay tushirib qoldiriladi: Shohsanam – Sanam, Bekposhsha, Gulposhsha – Poshsha, Bibisora – Sora, Sara, Gulbahor, Navbahor – Bahor kabi.
3. Ba'zi ismlarning qisqartirilishida ko'proq birinchi komponentning birinchi bo'g'inini saqlab qolishga intilinadi: Gulnora, Gulchehra – *Gulli*, Shahnoza, Shahlo – *Shaqqi*, Sanobar – *Sanni*, Mashxura – *Mashshi*, Muqaddas – *Miqqi* kabi.
4. Ayol ismlari qisqartirilganda *-sh*, *-ush* kabi affikslar bilan tugaydi. Rus va tatar tillari ta'sirida bu qo'shimchalar qisqartirishda faol ishtirok qiladi: Intizor – *Intu'sh*, Sadoqat – *Sadu'sh*, Nodira – *Nodu'sh*, Shahnoza, Sharqiya – *Shaqu'sh*, Dilafruz, Dilfuza – *Dipi'sh*, Anagul, Anaxon – *Anu'sh*, Umida – *Umu'sh*, Mohira, Mohiniso – *Mohi'sh*, Guli, Gulnora, Gulchehra – *Guli'sh* kabi.

Anabiyi-Anash, *Jumagul-Jumash*, *Xanimjon-Xanish*, *Dilbar-Dilush*, *Aypashsha-Ayish*, *To'xtajon-To'qish*, *Guljon-Gulish*, *Oyimposhsha-Oyposh*, *Norposhsha-Norposh*, *Xolposhsho-Xolposh*

So'zlarning aytilishini qisqartirish mohiyatan tilning nutqiy iqtisod qonuni bilan ham bog'liq. Bunga ko'ra, so'z shaklining qisqartirilishi tufayli talaffuzi osonlashishi, nutqiy jarayonda talaffuz uchun ketadigan vaqtni tejashga imkon tug'iladi⁶. Tadqiqotchi R.Xudayberganov o'zbek antroponimikasi materiallari asosida ismlarning qisqarish xususiyatlarini tahlil qilar ekan, birdan yeti variantgacha ismlarning qisqarish variantlarini tahlilga tortadi. Tahlil jarayonida, albatta erkak ismlari qatorida ayol ismlari ham kuzatiladi. Xususan, bir variantli ismlar qatorida Baxtigul // Baxtash, Gavhar // Gavvi,

⁵ Рахимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси. Филол.фан.н-ди...дисс. – Урганч, 1998. – Б. 91.

⁶ Худойберганов Р. Ўзбек антропономияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. 2008. - Б.13.



Gulshod // Gulish, Zulfiya // Zulfi, Nilufar // Nilu; ikki variantli ismlar qatorida Ro‘zibeka // Ro‘zka, Ro‘zika, Zuhra // Zo‘ra, Zavra, Mavjuda // Mavji, Maji, Onagul (Anagul) // Anish, Anush; olti variantli ismlar qatorida Qurvonturdi // Qurbonturdi –Qurvon, Qurri, Quri, Quvoq, Qummi, Qurdi kabi ayol ismlarining qisqarish variantlarini tahlilga tortgan. Lekin bu qisqartmalarning ko‘pchiligi xalq tilida ishlatilmaydi.

Xullas, Xorazm mintaqaviy ayol ismlarining dialektal o‘ziga xosligi aholi o‘rtasida udum bo‘lgan ba’zi ismlarda yoki ko‘proq ushbu hudud aholisi tomonidan faol qo‘llanuvchi ism shakllarida, shuningdek qo‘shma ism tarkibidagi antroponimik komponentlarda nomoyon bo‘ladi. Xorazm mintaqaviy ayol ismlarining fonetik-orfoepik jihatdan o‘ziga xosligi ismlarning shaklan mahalliy xalq shevalarining fonetik talablariga bo‘ysunganida o‘z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Бегматов Э.А., Саттаров Г. Дialeктные элементы узбекской национальной антропонимии // Ономастика Узбекистана. –Ташкент, 1989. –С. 113-114.
2. Раҳимов С. Хоразм минтақавий антропонимияси. Филол.фан.н-ди...дисс. – Урганч, 1998. – Б. 91.
3. Худойбергенов Р. Ўзбек антропонимияси тизимининг вариантдорлиги: Филол. фанлари номзоди ...дисс. автореф. –Ташкент, 2008. – Б.10.

